



Nuriddin SAIDKULO'V,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: nuriddinsaidkulov89@gmail.com

GulDPI dotsenti, PhD A. Asatulloev taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA INSON KAPITALINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatda ilm-u ma'rifatga asoslangan barqaror taraqqiyotni barpo etish hamda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarda jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratish masalalariga bag'ishlangan. Bugungi yoshlar o'zidan keyingi avlod uchun mamlakat taqdiri va kelajagi yo'lida mas'uldir, xuddiki katta avlod bugungi yoshlar oldidagi mas'ulligi kabi. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi qilinayotgan barcha ishlar mamlakatda inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ta'lim-tarbiya, yoshlar barkamolligi, Uchinchi renessans, inson kapitali, daxldorlik.

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам построения устойчивого развития на основе науки и просвещения в стране и создания основ Третьего Возрождения путем воспитания зрелого поколения и формирования у молодежи чувства сопричастности к изменениям в жизни общества. Сегодняшняя молодежь несет ответственность за судьбу и будущее страны для следующих поколений, так же, как старшее поколение несет ответственность за сегодняшнюю молодежь. Вся работа, проводимая по созданию основ Третьего Ренессанса, послужит развитию человеческого капитала в стране.

Ключевые слова: Молодежь, образование, развитие молодежи, Третье Ренессанса, человеческий капитал, вовлеченность.

THE ROLE OF HUMAN CAPITAL IN CREATING THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article is devoted to the issues of building a stable development based on science and enlightenment in the country and creating the foundations of the Third Renaissance by raising a mature generation and forming a sense of belonging to the changes in the life of society among young people. Today's youth are responsible for the fate and future of the country for the next generation, just as the older generation is responsible for today's youth. All the work being done to create the foundations of the Third Renaissance will serve the development of human capital in the country.

Key words: Youth, education, youth development, Third Renaissance, human capital, involvement.

Kirish. Barcha sohada modernlashuv jarayoni yuz berayotgan bir davrda davlatlar milliy taraqqiyot yo'lini saqlab qolgan holda rivojlanish, yuksalish masalalari har doimgidanda dolzarblashib bormoqda. Milliy taraqqiyot o'zining azal-azaldan shakllanib kelgan, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan, tarixiy davrlarda yuksak samarasini berib kelgan tajribalar asosiga qurilgan qadriyatlarini zamon ruhi bilan uyg'unlashtirgan holda olib borish eng to'g'ri yo'l ekanligiga dunyo guvoh bo'lmoqda. Shu bois, yillar chig'irig'idan o'tgan sinalgan yo'lni davom ettirish, uni yanada davr ruhi bilan boyitish o'z samarasini bermay qolmaydi. Bugun dunyoda o'zlikni saqlash masalasi tobora qiyinlashib bormoqda. Inson va jamiyat uchun turli xil tahdidlarning ortib borishi milliy o'zlikni mustahkamlash masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Tahdidlarni turlari ko'p bo'lishiga qaramay ularning ichida birdaniga xavf-xatari sezilmaydigan, sekinlik bilan jamiyatdagi insonlarning ong-u tafakkurini egallash bilan boshlanadigan shundan so'ng, hayot tarziga ko'chadigan ma'naviy tahdidlar borki, ularni vaqtda aniqlab chora ko'rilmasa, ertaga kech bo'lishi muqarrar. Ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olish uchun milliy o'zlik suvi bilan sug'orilgan immunitet shakllanishi zarurdir. Ma'naviy immunitet - bu bilim, qadriyat, ta'lim va tarbiyadir. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifasi hamda qadr va qimmatini anglash bugun nihoyatda muhimdir. Yoshlar tafakkuri tez o'zgarishga moyil. Sog'lom tafakkurni shakllantirish esa bilim, qadriyat, ta'lim va tarbiya bilan amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida inson kapitalining roli bilan bog'liq holda qo'yilgan mazkur maqolada, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va falsafiy fanlarning mumtoz namoyandalari asarlariga murojaat qilish lozim. Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati va barqaror taraqqiyot jarayonida inson kapitalining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning[1] shuningdek, Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning[2] asarlarida O'zbekistonning barqaror va

izchil taraqqiyotiga qaratilgan konseptual g'oyalari muhim manba hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Nizomulmuluk, Amir Temur asarlarida[3] ham davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashga doir fikrlar keltirilgan.

jamiyat barqarorligini ta'minlashda inson kapitalining o'rni, inson kapitalining tarkibi, shakllanishi, va undan samarali foydalanish muammolari Q.X.Abduraxmonov, S.S.G'ulomov, O.K.Abduraxmonov, A.A.Artikov, N.K.Zokirova, B.X.Umurzakov, X.P.Abulqosimov, A.V.Vaxabov, U.V.Gafurov, N.K.Murodova, S.A.Abdullayev, D.M.Karimova, Z.Y.Xudoyberdiyev, D.N.Paximova, M.X.Saidov, Sh.G.Akramova, E.B.Abdullayev, Sh.X.Mahmudov, M.M.Sodirjonov, M.J.Norqobilov, I.I.Toshpulatov, F.S.Qosimov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Xususan, Q.Nazarov milliy qadriyatlarining inson kapitali rivojlantirishdagi ahamiyati, G.G'affarova inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarining ahamiyati, M.Sharipov intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlari, E.Abdullayev inson kapitali namoyon bo'lishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari, Sh.Mahmudov innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda inson kapitalini takror hosil qilish va undan samarali foydalanish yo'llari, M.Sodirjonov inson kapitali rivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida), M.Norqobilov ijtimoiy kapital - milliy hamjihatlikni ta'minlash manbai, I.Toshpulatov inson kapitali samaradorligining ijtimoiy-falsafiy jihatlari falsafiy tahlil etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlardagi beqaror, o'zgaruvchan tafakkurni yot g'oya va mafkuralar, sirti yaltiroq bo'lgan turli xil qarashlar egallamasligi uchun ta'lim va tarbiya masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Bugungi yoshlar o'zidan keyingi avlod uchun mamlakat taqdiri va kelajagi yo'lida mas'uldir, xuddiki katta avlod bugungi yoshlar oldidagi mas'ulligi kabi. Ular o'zlaridan keyingi avlodga nima qoldiradi? Yillar davomida ardoqlanib kelingan ma'naviy merosni

faxrlanish, maqtanish uchun emas, balki o'zidan keyinga avlodga uni yanada boyitgan holda yetkazish ma'suliyati ularning zimmasidagi qarz ekanligini anglab yetayaptilarmi? Yoshlar bu borada qanday fikrda? Ularni bu ma'naviy dard qiynaydimi? Jamiyat va millat oldidagi mas'uliyati qanday? Ular ajdodlarga mosmi? Yoki aksi. Milliy o'zlikka, mentalitetga hatlarlar kuchayib borayotgan bir paytda munosib himoya qalqoni bo'la olayaptimi? Yoki befarqmi? Ana shunday og'riqli savollar har bir yosh-u qarini birdek qiyinladi. Har kim uyg'oq, ertasiga befarq bo'lmasligi shart. Buning uchun barchamiz birdek harakat qilib, millat va vatan taqdiri bilan o'zimizning kelajak rejalarimizni birlashtira olsak, o'ylaymizki, milliy o'zlikni saqlagan holda milliy taraqqiyotga erisha olamiz. Avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bilim, qadriyat, ta'lim va tarbiyani bir shaxsda birlashtira olsak, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish ham aynan ta'lim va tarbiya masalasiga bog'liqdir. Boy tariximiz bizlarga juda ko'p narsalardan saboq beradi, o'tmishdan hayot haqiqatlarini so'zlab beradi. Shonli tariximizda bundan oldin ham Uyg'onish davrlari bo'lganini barchamiz bilamiz. Huquqshunos olim Akmal Saidovning ta'kidlashicha, Sharq Uyg'onishi o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tgan bo'lib, birinchisi, IX-XII asrlar "Islom Renessansi" davri (Imom Buxoriy, Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniyning jahon ilmiga qo'shgan ulkan xizmati davri, Ma'mun akademiyasining Xorazmdagi faoliyati); ikkinchi bosqichi Temuriylar Renessansi davri XIV-XVI asrlarga to'g'ri keladi (Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzolarining ilm-fan, madaniyat rivojidagi xizmatlari) [4].

Darhaqiqat, buyuk ajdodlarimiz tomonidan tamol toshi qo'yilgan Uyg'onish davrlari haqida o'qib, o'rganganimizda faqat va faqat ilm orqali dunyo tamadduniga o'z hissasini qo'shganligini ko'rish mumkin. Ilm insonni hamisha yuksaltiradi, kamolotga yetkazadi. Bu ilm sharofatidan nafaqat ilm sohibi balki, butun bir jamiyat manfaat ko'radi. Ayniqsa, bu ilm-u irfondan yoshlar ko'proq nasibalanadi. Sababi, ulardagi shijoat, yoshlik kuch-quvvati dunyoning ilm eshiklarini ochish uchun kattalardan ko'ra ko'proq imkon beradi. Shu jihatdan ham uchinchi Renessansi Yangi O'zbekiston yoshlari bilan birga qurish ko'zda tutilmoqda. Buning uchun yoshlar bugungi kun ilmlarini puxta egallashlari, dunyoning iqtidorli yoshlari bilan bellasha olishlari shu bilan birgalikda, kelajak kasblarini ham sitqi dildan o'rganishlari kerak bo'ladi.

O'zbekistonning yangi yuksalish davriga qadam qo'yishi mamlakatimiz milliy rivojining ustuvor vazifalarini o'zida jamlagan zamonaviy bosqichini boshlab bermoqda. "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz"[5]. Amaliy islohotlar, eng avvalo, yangi O'zbekiston yoshlarining sog'lom dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsad yo'lida har bir yosh o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ko'zlagan niyatlariga erishishlari uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ko'mak berish - jamiyat va davlat oldidagi eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Bu esa, yosh avlod tarbiyasi, dunyoqarashi va qiziqishlarining ortib borishi hamda ijtimoiylashuv jarayonida har doimgidanda ko'proq mas'uliyatli bo'lishni taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanar ekan, avvalo mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarga, umuman ta'lim tizimiga e'tiborni har doimgidanda kuchaytirish zarurdir. Zero, bilimli avlod faqatgina ta'lim orqaligina yetishib chiqadi. Hozirda ta'lim tizimini yanada samaraliroq tashkil etish uchun qanday jihatlariga e'tibor berilishi kerak degan savollar soha mutaxassislarini qiyinlamoqda. Ular rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlarini o'rganib chiqib, milliy manfaatlarimizga ma'qul keladigan jihatlarini ta'lim tizimimizga joriy qilish tashabbusi bilan chiqmoqdalar. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda ta'lim tizimimizdagi an'anaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rni ularning rivojlanish asosi hisoblangan innovatsion uslublar kirib kelmoqda. Innovatsiya - bu yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. Bu degani, sifat va samaradorlik nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Innovatsiya ta'limga nisbatan qo'llanilganda, innovatsion ta'lim, ya'ni o'quv jarayonlarida istiqbolli usul va vositalarni qo'llash tushuniladi. Bu usul va vositalar innovatsion-kreativ tafakkurni shakllanishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda xalqaro miqyosda o'tkazilgan reyting natijalariga e'tibor qaratsak. 2024-yilning 1-yanvarida Xalqaro IQ reyestri (International IQ registry)

platformasi tomonidan 2023-yilgi reyting natijalari e'lon qilindi. Ushbu reyting natijalarini aniqlashda platforma orqali testlarni yechgan ishtirokchilarning natijalari asosiy omil hisoblandi. Reyting ballari 1 mln 691 ming 740 nafar ishtirokchining ko'rsatgan natijalariga tayanilgan holda ishlab chiqilib, o'rtacha IQ ballari bo'yicha eng yuqori o'rinni Janubiy Koreya band qilgan (107.54 ball). Kuchli to'rtlikdan Xitoy (106.99 ball), Eron (106.84 ball), Yaponiya (106.18 ball) joy olgan. Markaziy Osiyoda eng yaxshi ko'rsatkich Qozog'istonga tegishdir (64-o'rin, 97.26 ball). O'zbekiston esa ushbu reytingda 94.81ball bilan 80-o'rinni egallagan. Qo'shni Qirg'iziston 93.46 ball bilan 89-o'rin, Tojikiston esa 92.1 ball bilan 97-o'rin qo'lga kiritgan [6]. Ushbu natijalardan ko'rish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan ta'lim sohasida islohotlar to'g'ri olib borilayotganligidan dalolat bermoqda. Avvalo, insonda innovatsion tafakkur, kreativ fikrlash hamda mantiqiy va tanqidiy tahlil shakllanishi zarur. Shundagina, insonning tafakkur darajasi yoki xalqaro tilda aytganda IQ darajasi yuqorilab boraveradi.

Innovatsion-kreativ tafakkur haqida so'z borganda, uning tarkibidan joy olgan "innovatsion madaniyat"ga ham e'tibor qaratish muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi. Innovatsion madaniyat deyilganda, jamiyat va shaxsning rivojlanishini vorislik qonuniyatlariga asoslangan holda erkin ijodiy yaratish qobiliyati tushuniladi. Innovatsion madaniyat insoniy faoliyatning rang-barang sohalarda yangiliklarni har tomonlama o'zlashtirish va amalda kompleks qo'llovchi bilim va layoqatlar majmuini tashkil etadi.

Globallashuv jarayoni tobora jadallashib borayotgan bir paytda, yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish juda dolzarb mavzudir. Chunki aynan shu toifa - yoshlar jamiyat va davlatning jadal rivojlanishida, taraqqiy etishida qo'llab-quvvatlovchi, hal qiluvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Olimpiya medallari, mamlakatning sport olamida erishayotgan yutuqlari davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini bildirsa ajab emas.

"Chindan ham, sizlar g'oyat keskin bellashuvlarda yuksak jasorat va matonat ko'rsatib, 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni qo'lga kiritganingiz mamlakatimizning taraqqiyot borasidagi yuksak salohiyatini ifoda etadigan yorqin natijadir. Bu tarixiy g'alaba Yangi O'zbekiston yoshlari qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir marta amalda namoyish etdi"[7]. - dedi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimiz ishtirokchi davlatlar orasida umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Bu natijalar O'zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo'lmagan yutuqdir. Bu yoshlar siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasidir.

Yoshlarimiz ilm borasida ham, sport borasida ham mana endi kasb bo'yicha ham dunyoning nufuzli minbarlarida ishtirok etmoqda. 2024-yilning sentyabr oyida Fransiyaning Lion shahrida 70 dan ortiq davlat va mintaqalardan 1 400 nafardan ziyod mutaxassislar "WorldSkills Lyon 2024" kasbiy ko'nikmalar tanlovida o'zlarining texnologiyasi hamda elektr muhandisligi yo'nalishlarida kasbiy himoyalarini o'tkazdi. O'zbekistonda kasbiy yo'nalishlarni yanada rivojlantirib, ko'plab loyihalar va imkoniyatlarni yoshlarimizga taqdim etish ayni muaddaodir. Bu mamlakatda inson kapitaliga qanchalik e'tibor qaratilayotganida dalolatdir.

Yoshlarning tafakkuri va madaniyat darajasining yuqori emasligi har qanday vaziyat va sharoitlarda ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan o'zini olib qochish, aralashmaslik va befarq bo'lish sabablaridan biridir. Shu bois, ta'lim tizimida zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni mamlakat rivojiga yo'naltiriladigan sarmoya yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan investitsiya ekani tarixiy taraqqiyot isbotlab bergan eng xolis haqiqatdir. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessansga dadil qadam qo'yishi zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan, har tomonlama kamol topgan yoshlarning kelajagi intellektual salohiyati, iqtidori va qobiliyatiga bog'liqdir. Ilmiy tahlillar va tadqiqotlardan aniqlanishicha, insonning 3 yoshidan 22 yoshigacha bo'lgan davrida unga sarflanadigan sarmoya kelgusida 19-22 barobar ko'p foyda keltirar ekan.

Shu bois, O'zbekistondagi barcha yangilanishlarning asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar, o'zgarishlar uzluksiz olib borilmoqda. Ayni vaqtda, ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ortig'ini tashkil etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun yo'naltirilgan sarmoya deb baholab, ta'lim sifati va darajasi davlatning taraqqiyotini belgilab beradigan asosiy omil ekanini ta'kidlamoqda.

Xulosa va takliflar. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi, barkamol insonlar bo'lib tarbiyalanishi yo'lida zamonaviy, shinam, ilg'or, kreativ va innovatsion shart-sharoitlarni yo'lga qo'yish uchun O'zbekiston mavjud imkoniyatlarini to'laigicha ishga solmoqda. Asosiy maqsad - Uchinchi Renessans asosini yaratish, mamlakatimiz dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqishi uchun innovatsion va kreativ fikrlaydigan tashabbuskor yoshlarni yangi O'zbekistonning drayveriga aylantirishdan iboratdir.

Shu bois ham, jamiyatning eng faol qatlami sifatida yosh avlodga "muammo" deb emas, balki Yangi O'zbekistonning ertangi

rivojini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi, deb qaralmoqda. Bu sharoit va imkoniyatlar ta'lim tizimining oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Dastlabki vazifasi zamonaviy intellektual bilimga ega bo'lgan, raqobatbardosh, siyosiy ongi va madaniyati yuksak yoshlardan iborat bo'lgan milliy kadrlar zaxirasini tarbiyalab berishdan iboratdir. Bugungi tezkor zamonda yoshlarning intilish va qiziqishlarini har tomonlama ro'yobga chiqarishda davlat bosh islohotchi bo'lishi qolgan bo'g'inlarning samarali ishlashiga asosiy turtki bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy Taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 -jild. –T.: O'zbekiston, 2017. – B. 592.; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. 2- jild. –T.: O'zbekiston, 2018. – B. 508.; Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. –T.: O'zbekiston, 2019. – B. 400.; Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. –T.: O'zbekiston, 2020. – B. 456.; Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. –B. 464.
2. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-24 jildlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1996-2015.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.1. – Toshkent. "Fan". 1968.; Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi". 1993.; Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. –Toshkent: "Fan", 1971.; Ibn Sino. (Avitsenna). Избранные философские произведения. – Москва, 1980.; Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. – Toshkent: "Adolat", 1997.; Amir Temur. Temur tuzuklari. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B.184.
4. Saidov A. Movarounnahr muhaddis va faqihlarning jahon huquqiy madaniyatiga qo'shgan hissasi. O'zbekistonning Islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi. –T.: 2007, 113-bet.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // Манба: www.president.uz
6. <https://kun.uz/news/2024/02/26/iq-darajasi-boyicha-mamlakatlar-reytingi-tuzildi>
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7507>